



ZAMONAVIY DENTAL IMPLANTOLOGIYADA STRATEGIK ISLOHOTLARNING O'RNI

Muallif: Salimova M.A.

Ilmiy rahbar: Sattorova D.G'., Eshonqulov Sh.B.

O'quv yurti: Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Zamonaviy dental implantologiya stomatologiyaning yuqori texnologik, ilmiy asoslangan va individual yondashuvni talab qiluvchi yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Implantologik davolashning muvaffaqiyati faqatgina jarrohlik texnikasiga emas, balki biologik omillarni chuqur baholash, puxta klinik rejalashtirish, raqamli texnologiyalarni qo'llash hamda sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan strategik islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu ishda zamonaviy dental implantologiyada strategik islohotlarning ahamiyati tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi hamda “Raqamli sog'liqni saqlash” dasturi doirasida implantologik xizmatlarni rivojlantirish istiqbollari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: dental implantologiya, strategik islohotlar, raqamli sog'liqni saqlash, implantatsiya, klinik rejalashtirish

Kirish

So'nggi o'n yilliklarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tubdan islohot qilinayotganligining yorqin namunalaridan biri stomatologiyaning eng tez rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylanganidir. Ayniqsa dental implantologiya sohasi aholining umumiy salomatligi va hayot sifatini oshirishda stomatologiyaning muhim yo'nalishlaridandir.. Dental implantlar yordamida tish yetishmovchiligini tiklash funksional barqarorlik, estetik moslik va uzoq muddatli klinik muvaffaqiyatni ta'minlaydi. Biroq implantatsiya natijalarining ishonchliligi ko'p jihatdan strategik rejalashtirish, biologik asoslangan qaror qabul qilish va



zamonaviy texnologiyalarni kompleks qo'llashga bog'liq. Raqamli texnologiyalar va strategik rejalashtirish

“Raqamli sog‘liqni saqlash” dasturi doirasida stomatologiyada raqamli diagnostika va davolash usullarining joriy etilishi implantologik amaliyotda tub burilish yasadi. Bugungi kunda konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT), intraoral skanerlash va kompyuter yordamida implant joylashtirish (guided surgery) texnologiyalari keng qo'llanilmoqda.

CBCT yordamida uch o'lchamli tasvir olish implant joylashuvini yuqori aniqlikda rejalashtirish imkonini beradi.

Bu esa:

- anatomik xavf zonalarini aniqlash;
- suyak augmentatsiyasi zaruratini baholash;
- implant uzunligi va diametrini to'g'ri tanlash imkonini yaratadi.

Raqamli rejalashtirish asosida tayyorlangan jarrohlik shablonlari implantatsiya jarayonini yanada aniq, tez va xavfsiz bajarishga yordam beradi. Natijada operatsion vaqt qisqaradi, travmatik ta'sir kamayadi va bemorning reabilitatsiya davri yengillashadi.

O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni ustuvor vazifa sifatida belgilaydi. Ushbu strategik hujjat zamonaviy dental implantologiyani rivojlantirish uchun muhim normativ va institutsional asos bo'lib xizmat qiladi. Yuqori texnologik stomatologik yordamni rivojlantirish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion davolash usullarini amaliyotga joriy etish implantologik xizmatlarning sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan “Raqamli sog‘liqni saqlash” dasturi dental implantologiyada strategik islohotlarning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Shu sohada O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samarasi o'laroq so'nggi yillarda davlat stomatologik muassasalari zamonaviy diagnostika va



davolash uskunalari bilan jihozlanmoqda. Bu ishlar Prezidentning 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni asosida amalga oshirilib, tibbiyot muassasalarini texnik jihatdan yangilashni nazarda tutadi. Prezidentning 2020-yil 12-noyabrdagi PQ-4891-son Qarori doirasida raqamli sog'liqni saqlashni joriy etish maqsadida: elektron tibbiy hujjatlar, bemorlarni onlayn ro'yxatga olish va raqamli diagnostika tizimlari bosqichma-bosqich amalga joriy qilinmoqda. Bundan tashqari, tekshiruvlar sifatini oshirish ko'lamida Respublikamiz bo'yicha konus-nurli kompyuter tomografiyasi (CBCT), intraoral skanerlash va kompyuter yordamida implant joylashtirish texnologiyalarining rivoji implantatsiya jarayonini yanada aniq, xavfsiz va prognozli qiladi.

Natijada:

- implantologik xizmatlarning hududiy tengligi oshmoqda;
- yuqori texnologik yordam aholiga yaqinlashmoqda;
- kadrlar salohiyati va malakasi oshirilmqda.

Strategik islohotlar implantologik davolashni standartlashtirish, klinik protokollarni joriy etish va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish tizimini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Raqamli rejalashtirish implant joylashuvini optimal anatomik pozitsiyada aniqlashga, biologik to'qimalarni maksimal darajada saqlashga va jarrohlik asoratlari xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy dental implantologiyada strategik islohotlar individual yondashuv tamoyiliga asoslanadi. Har bir bemorda suyak hajmi va sifati, yumshoq to'qimalar holati, umumiy sog'liq darajasi va funksional ehtiyojlar oldindan chuqur tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv implantatsiya vaqtini to'g'ri tanlash, qo'shimcha suyak augmentatsiyasi yoki yumshoq to'qima plastikasini rejalashtirish imkonini beradi. Natijada implantning uzoq muddatli barqarorligi va peri-implant to'qimalarning sog'lom holati ta'minlanadi.

Individual yondashuv va bemorga yo'naltirilgan model



Zamonaviy implantologiyada individual yondashuv ustuvor hisoblanadi. Har bir bemor uchun davolash rejasi biologik, funksional va estetik omillarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. Suyak hajmi yetarli bo'lmagan hollarda suyak augmentatsiyasi, sinus-lifting yoki yumshoq to'qima plastikalari qo'llaniladi.

Bundan tashqari, implantatsiya bemorning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Estetik va funksional tiklanish bemorning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi.

O'zbekistonda implantologiya sohasidagi strategik islohotlar

So'nggi yillarda O'zbekistonda sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va texnik jihatdan yangilash bo'yicha muhim qarorlar qabul qilindi. Davlat stomatologik muassasalarining zamonaviy uskunalari bilan ta'minlanishi implantologik xizmatlarning sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu islohotlar natijasida:

- yuqori texnologik stomatologik yordam ommalashmoqda;
- implantologik xizmatlarga bo'lgan ishonch ortmoqda;
- klinik standartlar va protokollar shakllanmoqda.

Strategik yondashuv implantologik davolashni tizimli, ilmiy asoslangan va barqaror rivojlantirishga imkon beradi va shu bilan birgalikda bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga poydevor bo'ladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dental implantologiyada strategik islohotlar davolash jarayonining samaradorligi va barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Raqamli sog'liqni saqlash texnologiyalarini joriy etish, ilmiy asoslangan rejalashtirish va davlat miqyosidagi sog'liqni saqlash islohotlari implantologik xizmatlarning sifatini yangi bosqichga olib chiqmoqda. O'zbekiston Respublikasining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi va "Raqamli sog'liqni saqlash" dasturi zamonaviy dental implantologiyaning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Albrektsson T., Zarb G., Worthington P., Eriksson A.R. The long-term efficacy of currently used dental implants. International Journal of Oral & Maxillofacial Implants, 1986.
2. Misch C.E. Dental Implant Prosthetics. Mosby Elsevier, 2015.
3. Esposito M., Grusovin M.G., Felice P. The efficacy of implant therapy. European Journal of Oral Implantology, 2009.
4. World Health Organization. Digital Health Strategy 2020–2025. WHO Press.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi.
6. ITU–WHO. Digital Health Platforms and Services. 2021.
7. Bornstein M.M. et al. CBCT in implant dentistry. Clinical Oral Implants Research, 2014.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sog'ligni saqlash tizimini yanada rivojlantirish va raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori. - Toshkent, 2022.
9. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. "Jarrohlik stomatologiyasi xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar". - Toshkent, 2023.